BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ashurova Rushana Odilovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida o‘quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, o‘quvchilarning kreativ fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish omillari hamda mazkur jarayonda o‘qituvchining metodik faoliyati o‘rganiladi. Shuningdek, pedagogik yondashuvlar orqali o‘quvchilarning kelajak kasb tanlashiga yo‘naltirishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, texnologiya darslari, kasbiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik asoslar, kasbiy yo‘naltirish, amaliy ko‘nikmalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyiha faoliyati, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish.*

Zamonaviy sharoitlarda iinnovatsion faoliyat sifat jihatidan yangi mazmun bilan boyitilmoqda. Ammo, amaliyotning ko‘rsatishicha, barcha ta'lim muassasalari ham o‘zgargan sharoitlarda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshira olmaydilar. Yuzaga kelgan o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlar strategiyalari, hamkorlik, o‘zaro hurmat tamoyillari asosidagi yangi munosabatlarni qurishni bilmaslik va ba'zan istamaslik, ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida innovatsion yondashuv imkoniyatlarini anglamaslik halal bermoqda. Bularning barchasi, innovatsion pedagogik faoliyatning ahamiyati to‘g‘risidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirish zaruratini yuzaga

keltiradi. Maktabda innovatsion faoliyatni faollashtirish vazifasini amaliy hal etishning muvaffaqiyati innovatsion tashkiliy-pedagogik faoliyatning ko‘rsatkichlari qanchalik aniq ifodalanishiga bog‘liq [1].

Bugungi zamonda ta’limning asosiy maqsadi — nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda kasbiy va shaxsga oid kompetensiyalarni shakllantirishdir. Kompetensiya tushunchasi pedagogik tadqiqotlarda “bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plami bo‘lib, u amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli qo‘llanadi” deb tushuniladi.

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslari o‘quvchilarga nafaqat amaliy ko‘nikmalarni egallash, balki texnik ijodkorlik, mustaqil fikrlash va kelajak kasb haqida tasavvur berishda muhim rol o‘ynaydi.

Kompetensiya – bu bilim olish, tajriba, qadriyatlar, moyillikka asoslangan umumiy qobiliyatdir. Qobiliyat faqat bilim yoki ko‘nikma bilan chegaralanmaydi, kompetentli bo‘lish olim yoki ma’lumotli bo‘lishlikni anglatmaydi. Odamlarning xulqatvorini cheksiz xilmaxil hayotiy vaziyatlarga moslashtirish, umumiy tarixga mos keladigan shaxsiy biografiyadagi “ma’lum bir vaziyatda olingan bilim va tajribani safarbar qilish” umumiy qobiliyat bilan bog‘liq deb taxmin qilinadi. Demak, ko‘nikmalar amaldagi kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Kompetensiya – bu mahorat, harakatni keltirib chiqaradigan tushunchadir. Kompetensiyani bilim bilan vaziyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish qobiliyati yoki kengroq ma’noda, muammoga mos jarayonni (bajari ladigan ish tartibi, ya’ni bilim va harakatni) topish, kashf etish qobiliyati sifatida ko‘rish mumkin. Kompetentlik – bu ikki komponentning sintezi: ta’lim oluvchilarning ma’lum bir kompetensiyalar to‘plamiga egaligi; ta’limning ma’lum bir bosqichini tugatgan shaxsning yarqin shaxsiy sifatlari, unda “samarali harakat qilish, natijaga erishish, muammoni samarali hal qilish qobiliyati” va mehnat bozorida mutaxassisning harakatchanligini ifodalaydi [2].

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonida bir qator bilim, ko‘nikma va malakalar integratsiyasini nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi, ularni o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiradi.

O‘qituvchi pedagogik vazifalarni bajarishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanib, o‘quvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida o‘qituvchi namunaviy motivatsiya, loyiha asosida o‘qitish, interfaol metodlar orqali jarayonni samarali tashkil etadi [3].

Innovatsion yondashuvlar, xususan interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyihaviy faoliyat, o‘quvchilarning kreativ fikrlash va kasbiy yo‘naltirilgan ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Loyiha asosida darslar o‘quvchilarga mustaqil izlanish, muammolarni hal qilish va yaratish jarayonini o‘rgatadi, shuningdek ularni kelajak kasblariga yo‘naltiradi [4].

Amaliy mashg‘ulot jarayonida har bir topshiriq oddiydan murakkabga qarab Boshlang‘ich sinf mehnat ta‘limi darslaridagi ta`lim-tarbiyaviy vazifalar umumta'lim maktablaridagi mehnat ta`limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg‘ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

1. Qog‘oz va karton bilan ishlash.
2. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.
3. Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash

a) plastilin va loy ishi;

b) urug'lar bilan ishlash;

d) applikatsiya va mozaika ishlari;

4. Loyihalash va modellashtirish;

a) badiiy qurish-yasash.

5. Qishloq xo‘jalik mehnati [5].

Amaliy mashg‘ulotlar yordamida o‘quvchilarda texnologik jarayonlarni o‘rganish, qo‘l mehnati va ijodiy ishlarda ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi [6].

Mazkur fan yangi bo`lganligi uchun bo`lajak pedagog kadrlarga qo`yiladigan kompetension talablarni shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Ta`limga oid me`yoriy huquqiy hujjatlar, jumladan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi 287-son qarori bilan tasdiqlangan “Kasbiy malakalar, bilim va ko`nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to`g`risida”gi Nizomga asosan bo`lajak pedagog kadrlar uchun quyidagi kompetension talablarni belgilash mumkin: 1) o`quvchilarning mehnat va texnologik fazilatlarini shakllantirish; 2) o`quvchilarning mehnat va texnologik bilim asoslari bilan tanishtirish; 3) o`quvchilarning turli ishlanmalar, uskunalar, jihozlar kabilarni tayyorlash ko`nikmalarini tarkib toptirish; 4) o`quvchilarning texnologik layoqatlarini rivojlantirish [7].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi, bu jarayonda kompetensiyaviy yondashuv, o‘qituvchi faoliyati va innovatsion metodlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari bilan birga ularning kelajakdagi professional yo‘nalishlariga tayyorgarligini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. A.A.Urazimbetova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish [Matn]: ilmiy nashr / A.A.Urazimbetova, Toshken

2. Saidova M, Bo‘ronova N. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2025. aprel, №4-son DOI:10.5281/zenodo.15252576.

3. Masharipova S.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda innovasion texnologiyalardan foydalanish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. Innovation in the Modern Education System, 2025.

4. The Practical Significance of Forming Professional Competences in Technology Lessons of Primary Class Students**.** European International Journal of Pedagogics, 2024.

5. Mavlonova Z.A. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish. International journal of scientific Researchersissn: 3030-332X Impact factor: 8,293 Volume 11, issue 2, May2025

6. Xolov O, To’dayeva S.A. Pedagogik kompetintlikni shakllantirishda axborot texnologiyasi tushunchasi va klassifikatsiyasi. Ustozlar uchun, 2025, Vol.86 No.1.

7. D.M. Tashpulatova. K.I. Ne`matova. Boshlang`ich ta`limda “texnologiya” fanini o„qitishda kompetension yondashuvlar. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023 ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1